

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 389 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUYUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FOND LARDAN VA ISHLAB CHI QARISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHI QARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	



DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI



Eshev Furqat A'zamovich

Fan va texnologiyalar universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi
eshevfurqat@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada dividend siyosati, foydani boshqarish va foyda sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi dividend siyosatining aksiyadorlar boyligi hamda korxona qiymatiga ta'sirini foyda sifati nuqtai nazaridan aniqlashdan iborat. Tadqiqot kvantitativ yondashuv asosida olib borilib, panel ma'lumotlar tahlili usuli qo'llanilgan. Empirik tahlil 2015–2025-yillarda fond bozorida faoliyat yuritgan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlariga asoslangan. Dividend siyosati dividendlarning sof foydaga nisbati orqali baholanib, foydani boshqarish darajasi modifikatsiyalangan Jones modeli asosida, foyda sifati esa Dechow va Dichev modeli yordamida aniqlangan. Tadqiqot natijalari foyda sifati dividend siyosatiga ijobiy, foydani boshqarish esa salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: dividend siyosati, foydani boshqarish, foyda sifati, aksiyadorlar boyligi, korxona qiymati, moliyaviy boshqaruv, dividend to'lovlari, panel ma'lumotlar tahlili, empirik tahlil, agentlik nazariyasi, signal berish nazariyasi.

Abstract. This article empirically examines the relationship between dividend policy, earnings management, and earnings quality. The aim of the study is to identify the impact of dividend policy on shareholder wealth and firm value from the perspective of earnings quality. The research is conducted using a quantitative approach and employs panel data analysis. The empirical analysis is based on financial data from joint-stock companies operating in the stock market during 2015–2025. Dividend policy is measured as the ratio of dividends to net income, while earnings management is estimated using the Modified Jones Model, and earnings quality is assessed based on the Dechow and Dichev model. The findings indicate that earnings quality has a positive effect on dividend policy, whereas earnings management has a negative effect.

Keywords: dividend policy, earnings management, earnings quality, shareholder wealth, firm value, financial management, dividend payments, panel data analysis, empirical analysis, agency theory, signaling theory.

Аннотация. В данной статье эмпирически анализируется взаимосвязь между дивидендной политикой, управлением прибылью и качеством прибыли. Цель исследования заключается в определении влияния дивидендной политики на благосостояние акционеров и стоимость компании с точки зрения качества прибыли. Исследование проведено на основе количественного подхода с использованием метода панельного анализа данных. Эмпирический анализ основан на финансовых показателях акционерных обществ, осуществлявших деятельность на фондовом рынке в 2015–2025 годах. Дивидендная политика оценивается через соотношение дивидендов к чистой прибыли, при этом уровень управления прибылью определяется на основе модифицированной модели Джонса, а качество прибыли — с использованием модели Дечоу и Дичева. Результаты исследования подтверждают, что качество прибыли оказывает положительное влияние на дивидендную политику, тогда как управление прибылью оказывает отрицательное влияние.

Ключевые слова: дивидендная политика, управление прибылью, качество прибыли, благосостояние акционеров, стоимость компании, финансовое управление, дивидендные выплаты, панельный анализ данных, эмпирический анализ, агентская теория, теория сигналов.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investitsion jozibadorligini oshirish hamda aksiyadorlar boyligini maksimal darajada ko'paytirish moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda dividend siyosati korxona tomonidan qabul qilinadigan eng muhim strategik moliyaviy qarorlardan biri bo'lib, u foydaning taqsimlanishi, reinvestitsiya hajmi hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini belgilaydi. Dividend siyosati nafaqat aksiyadorlar manfaatlarini ifodalaydi, balki moliya bozoriga korxonaning joriy va istiqboldagi moliyaviy holati haqida muhim signal uzatuvchi mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi.

Moliyaviy adabiyotlarda dividend siyosatining korxona qiymatiga ta'siri masalasi uzoq yillar davomida ilmiy munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Miller va Modilyani tomonidan ilgari surilgan dividendlarning ahamiyatsizligi nazariyasi mukammal bozor sharoitida dividend siyosatining korxona qiymatiga ta'siri mavjud emasligini ta'kidlasa-da, real bozor sharoitlarida soliqlar, axborot assimetriyasi, agentlik muammolari hamda tranzaksiya xarajatlarining mavjudligi dividend siyosatining amaliy ahamiyatini oshiradi. Shu sababli, zamonaviy tadqiqotlarda dividend siyosati korxona qiymatini shakllantiruvchi muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda dividend siyosatini foyda sifati va foydani boshqarish bilan bog'liq holda o'rganishga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Foydani boshqarish menejerlar tomonidan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini muayyan manfaatlar asosida o'zgartirish jarayonini ifodalab, dividend siyosatining ishonchliligi hamda barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Past sifatli foyda asosida shakllantirilgan dividend siyosati investorlarni chalg'itishi va bozor samaradorligini pasaytirishi mumkin. Aksincha, yuqori sifatli foyda korxonalarga barqaror dividend to'lash imkonini yaratadi hamda aksiyadorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda o'tkazilgan empirik tadqiqotlar dividend siyosati, foyda sifati va foydani boshqarish o'rtasida muhim bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan bo'lsa-da, mazkur masalalar bo'yicha yagona xulosa shakllanmagan. Ayniqsa, rivojlanayotgan moliya bozorlarida ushbu omillarning dividend siyosatiga ta'sirini kompleks empirik tahlil qilgan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi dividend siyosati, foydani boshqarish va foyda sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik jihatdan tahlil qilish hamda dividend siyosatining aksiyadorlar boyligi va korxona qiymatiga ta'sirini foyda sifati nuqtai nazaridan aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kvantitativ yondashuv asosida panel ma'lumotlar tahlili usuli qo'llanilib, fond bozorida faoliyat yurituvchi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlari asosida empirik tahlil amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dividend siyosati moliyaviy boshqaruv nazariyasining eng muhim va bahsli masalalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda dividend siyosatining korxona qiymatiga ta'siri, unga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, foydani boshqarish va foyda sifati bilan o'zaro bog'liqligi keng miqyosda o'rganilgan. Ushbu bo'limda dividend siyosati bo'yicha shakllangan asosiy nazariy yondashuvlar hamda zamonaviy empirik tadqiqotlar tizimli tarzda tahlil qilinadi.

Dividend siyosati bo'yicha dastlabki fundamental tadqiqotlardan biri Lintner (1956) ishlarida aks etgan bo'lib, muallif kompaniyalar dividendlarni keskin o'zgartirishdan qochishini hamda barqaror dividend siyosatini afzal ko'rishini ilmiy asoslab bergan. Lintnerga ko'ra, menejerlar dividend qarorlarini joriy foyda darajasiga emas, balki uzoq muddatli barqaror foyda ko'rsatkichlariga tayangan holda qabul qiladilar. Ushbu yondashuv keyingi ko'plab tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Dividend siyosatining nazariy asoslari Miller va Modilyani (1961) tomonidan ishlab chiqilgan dividendlarning ahamiyatsizligi nazariyasi bilan yanada rivojlandi. Mazkur nazariyaga ko'ra, mukammal kapital bozorlarida dividend siyosati korxona qiymatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Biroq keyingi ilmiy tadqiqotlar real bozor sharoitlarida soliqlar, tranzaksiya xarajatlari, axborot assimetriyasi hamda agentlik muammolari mavjudligi sababli dividend siyosatining amaliy ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatdi.

Gordon (1963) va Walter (1963) tomonidan ilgari surilgan "qush qo'lda" nazariyasiga ko'ra, investorlar kelajakdagi noma'lum kapital o'sishiga nisbatan joriy dividendlarni afzal ko'radilar. Ushbu nazariya dividendlarning investorlar tomonidan xavfni kamaytiruvchi omil sifatida qabul qilinishini asoslaydi. Shu bois, yuqori dividend to'laydigan kompaniyalar bozor tomonidan nisbatan yuqoriroq baholanishi mumkin.

Soliq afzalligi nazariyasi doirasida Brennan (1970), shuningdek, Litzenberger va Ramaswamy (1979) dividendlar bo'yicha soliq yukining kapital o'sishiga nisbatan yuqori bo'lishi investorlarning dividend siyosatiga munosabatiga ta'sir qilishini ko'rsatgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, yuqori soliq sharoitida kompaniyalar dividendlarni kamaytirish orqali aksiyadorlar boyligini oshirishlari mumkin.



Dividend siyosatining axborot mazmuni Ross (1977) hamda Bhattacharya (1979) tomonidan ishlab chiqilgan signal berish nazariyasi orqali izohlanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, dividendlar kompaniyaning kelajakdagi foydasi va moliyaviy holati haqida bozorga muhim signal beradi. Dividendlarning oshirilishi ijobiy, kamaytirilishi esa salbiy signal sifatida qabul qilinadi.

Agentlik nazariyasi doirasida Jensen va Meckling (1976) hamda Jensen (1986) dividendlarni menejerlar va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar ziddiyatini kamaytiruvchi mexanizm sifatida talqin qilgan. Yuqori dividendlar menejerlarning erkin pul oqimlarini samarasiz investitsiyalarga yo'naltirish imkoniyatini cheklaydi va agentlik xarajatlarini kamaytiradi.

So'nggi yillarda dividend siyosati bilan foydani boshqarish o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylandi. Healy va Wahlen (1999) foydani boshqarishni menejerlarning moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini manfaatdor tomonlarni chalg'itish yoki shartnomaviy cheklovlardan chetlab o'tish maqsadida o'zgartirish jarayoni sifatida ta'riflaydilar. Ularning tadqiqotlari foydani boshqarish dividend siyosatining ishonchlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

Dechow va Dichev (2002), shuningdek, Francis va boshqalar (2005) foyda sifati tushunchasini rivojlantirib, yuqori sifatli foyda barqaror dividend siyosatini yuritish imkonini berishini ilmiy asoslab berganlar. Ushbu tadqiqotlar dividend siyosatini baholashda foyda miqdori bilan bir qatorda foyda sifatini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda o'tkazilgan empirik tadqiqotlar dividend siyosatiga institutsional muhit, huquqiy tizim hamda moliyaviy bozorlarning rivojlanish darajasi sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan (La Porta et al., 2000). Ushbu tadqiqotlarga ko'ra, huquqiy himoya darajasi past bo'lgan mamlakatlarda dividendlar aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavjud adabiyotlar dividend siyosati, foydani boshqarish va foyda sifati o'rtasida murakkab hamda ko'p qirrali bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan bozorlar sharoitida kompleks nazariy yondashuvlarni qo'llagan empirik tadqiqotlar yetarli darajada emas. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kvantitativ empirik tahlil asosida olib borilib, dividend siyosati, foydani boshqarish va foyda sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot tushuntiruvchi (explanatory) xarakterga ega bo'lib, unda nazariy yondashuvlar va empirik modellar uyg'unligi ta'minlangan. Tadqiqot jarayonida panel ma'lumotlar tahlili usuli qo'llanildi. Ushbu usul kompaniyalar faoliyatini vaqt va makon kesimida chuqurroq tahlil qilish, shuningdek, kompaniyalar o'rtasidagi individual heterogenlikni hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti sifatida fond bozorida ro'yxatdan o'tgan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy faoliyati tanlandi, tadqiqot predmeti esa dividend siyosati ko'rsatkichlari, foydani boshqarish darajasi va foyda sifati o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy bog'liqlikdan iborat bo'ldi. Tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanilib, ular kompaniyalarning yillik moliyaviy hisobotlari, fond birjalarning rasmiy ma'lumotlari hamda ochiq moliyaviy axborot bazalaridan jamlandi.

Tanlanmani shakllantirishda kompaniyalarning fond bozorida kamida besh yil uzluksiz faoliyat yuritganligi, moliyaviy hisobotlarining to'liq e'lon qilinganligi hamda moliyaviy sektor tarkibiga kirmasligi (bank va sug'urta kompaniyalari kiritilmaganligi) asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Ushbu tanlash mezonlari tadqiqot natijalarining ishonchlilikini oshirish hamda dividend siyosati, foydani boshqarish va foyda sifati o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlikni aniqroq baholash imkonini berdi.

Tadqiqot davri 2015–2025-yillar oralig'ini qamrab oladi, bu esa dividend siyosatidagi barqaror tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dividend siyosati korxona moliyaviy boshqaruvining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u foydaning qaysi qismi aksiyadorlarga dividend sifatida taqsimlanishi hamda qaysi qismi reinvestitsiya qilinishini belgilaydi. Ushbu siyosat korxona qiymatini shakllantirish, investitsion qarorlar samaradorligi va aksiyadorlar ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda dividend siyosati ko'pincha foyda barqarorligi, moliyaviy cheklovlar, agentlik muammolari va axborot assimetriyasi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

Dividend siyosatining nazariy asoslari Miller va Modilyani tomonidan ishlab chiqilgan dividendlarning ahamiyatsizligi nazariyasidan boshlangan bo'lsa-da, real bozor sharoitlarida ushbu nazariyaning cheklanganligi ko'plab empirik tadqiqotlar orqali isbotlangan. Xususan, soliqlar, tranzaksiya xarajatlari va axborot nomutanosibliги mavjud bo'lgan sharoitda dividend siyosati investorlar qarorlariga hamda aksiyalarning bozor qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, zamonaviy moliyaviy nazariyalarda dividend siyosati korxona qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik mexanizm sifatida qaraladi.

Dividend siyosatini shakllantirishda foyda sifati alohida ahamiyatga ega. Foyda sifati kompaniya moliyaviy hisobotlarida aks ettirilgan foydaning haqiqiy iqtisodiy natijalarni qanchalik aniq ifodalashini bildiradi. Yuqori sifatli foyda barqaror pul oqimlari bilan ta'minlanadi va kelajakdagi daromadlarni ishonchli prognoz qilish imkonini beradi. Bunday sharoitda korxonalar barqaror va izchil dividend siyosatini yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Aksincha, past sifatli foyda dividend to'lovlarining keskin o'zgarishiga olib kelib, aksiyadorlar uchun noaniqlikni kuchaytiradi.

Foydani boshqarish dividend siyosatini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Menejerlar ayrim hollarda dividendlarni barqaror ko'rsatish, investorlar kutishlarini oqlash yoki shartnomaviy cheklovlardan qochish maqsadida foyda ko'rsatkichlarini sun'iy ravishda o'zgartirishlari mumkin. Bunday holat dividend siyosatining axborot mazmunini pasaytiradi va bozor ishonchini susaytiradi. Shu bois, foydani boshqarish darajasi yuqori bo'lgan korxonalarda dividend siyosati uzoq muddatda barqaror bo'lmisligi mumkin.

Empirik tahlil natijalari dividend siyosati bilan foyda sifati o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, foyda sifati yuqori bo'lgan korxonalar dividend to'lovlarini barqaror saqlashga va aksiyadorlarga uzoq muddatli qiymat yaratishga intiladilar. Shu bilan birga, foydani boshqarish darajasi dividend siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, dividend to'lovlarining barqarorligini pasaytiradi.

Nazorat o'zgaruvchilari tahlili shuni ko'rsatadiki, kompaniya hajmi va rentabellik dividend siyosatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, moliyaviy leverajning yuqori darajasi esa dividend to'lovlarini cheklaydi. Likvidlik darajasi yuqori bo'lgan korxonalarda dividend to'lash imkoniyati kengroq bo'lib, bu ularning moliyaviy barqarorligini aks ettiradi. Ushbu natijalar avvalgi empirik tadqiqotlar xulosalari bilan mos keladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari dividend siyosatini faqat foyda miqdoriga asoslanib baholash yetarli emasligini, balki foyda sifati va foydani boshqarish darajasini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Dividend siyosati korxona qiymatini oshirishda samarali vosita bo'lishi uchun u yuqori sifatli foyda va shaffof moliyaviy hisobotlar bilan qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Mazkur tadqiqot doirasida dividend siyosati, foyda sifati va foydani boshqarish o'rtasidagi bog'liqlik panel regressiya modeli asosida empirik jihatdan baholandi. Modellarni tanlashda Hausman testi natijalariga ko'ra Fixed Effects modeli ustun deb topildi, bu esa kompaniyalar o'rtasidagi individual farqlarni hisobga olish imkonini berdi. Regressiya tahlilida robust standart xatoliklardan foydalanildi.

1-jadval. Dividend siyosatiga ta'sir etuvchi omillarning panel regressiya natijalari

O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent	t-statistika	p-qiymat
Foyda sifati (EQ)	0.184	3.21	0.001
Foydani boshqarish (EM)	-0.127	-2.87	0.004
Korxona hajmi (SIZE)	0.093	2.45	0.015
Rentabellik (ROA)	0.256	4.12	0.000
Moliyaviy leveraj (LEV)	-0.141	-3.06	0.002
Likvidlik (LIQ)	0.067	1.98	0.048
Doimiy had	-0.512	-2.14	0.033
R ²	0.42		
Observatsiyalar soni			1 080

Jadvalda keltirilgan natijalar dividend siyosatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, foyda sifati koeffitsiyentining musbat va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lishi ($\beta = 0,184$; $p < 0,01$) yuqori sifatli foydaga ega korxonalar dividend to'lovlarini barqaror va izchil amalga oshirishga moyil ekanligini anglatadi. Mazkur natija signal berish nazariyasiga mos kelib, dividendlar orqali kompaniya moliyaviy holati haqida bozorga ijobiy axborot uzatilishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, foydani boshqarish koeffitsiyentining manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli chiqishi ($\beta = -0,127$; $p < 0,01$) foydani sun'iy boshqarish dividend siyosatining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini bildiradi. Ushbu holat agentlik nazariyasi bilan izohlanib, menejerlarning qisqa muddatli manfaatlar aksiyadorlar manfaatlar bilan to'liq mos kelmasligi mumkinligini ko'rsatadi. Natijada dividend siyosatining ishonchliligi pasayadi.

Nazorat o'zgaruvchilari tahlili shuni ko'rsatadiki, korxona hajmi va rentabellik dividend siyosatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yirik hamda yuqori rentabelli kompaniyalar odatda barqaror pul oqimlariga ega bo'lib, dividend to'lash imkoniyatlari kengroq bo'ladi. Aksincha, moliyaviy leverajning yuqori darajasi dividend to'lovlarini cheklaydi, chunki qarz majburiyatlari dividend siyosatiga nisbatan ustuvorlik kasb etadi.



Bundan tashqari, likvidlik darajasining ijobiy ta'siri ($p < 0,05$) qisqa muddatli to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan korxonalarda dividend to'lash imkoniyati nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Modelning tushuntirish darajasi ($R^2 = 0,42$) esa tanlangan o'zgaruvchilar dividend siyosatidagi o'zgarishlarning sezilarli qismini izohlab bera olishini anglatadi.

Umuman olganda, empirik natijalar dividend siyosatini shakllantirishda foyda miqdori bilan bir qatorda uning sifati va shaffofligini ham hisobga olish muhim ekanligini ko'rsatadi. Foyda sifati yuqori va foydani boshqarish darajasi past bo'lgan korxonalarda dividend siyosati aksiyadorlar boyligini oshirishga samarali xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot dividend siyosati, foydani boshqarish va foyda sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik jihatdan tahlil qilishga qaratildi. Panel ma'lumotlar tahlili asosida olingan natijalar dividend siyosatini shakllantirishda foyda sifati muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, foyda sifati yuqori bo'lgan korxonalarda dividend to'lovlari barqaror va izchil amalga oshirilishi aniqlanib, ushbu holat aksiyadorlar boyligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Shu bilan birga, foydani boshqarish darajasining ortishi dividend siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, dividend to'lovlarining ishonchligini pasaytirishi qayd etildi.

Tadqiqot natijalari dividend siyosatini faqat sof foyda miqdoriga asoslanib belgilash yetarli emasligini ko'rsatadi. Foyda ko'rsatkichlarining sifati, ularning pul oqimlari bilan mosligi hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligi dividend siyosatining uzoq muddatli samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa dividend siyosati signal berish va agentlik nazariyalari bilan uzviy bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Olingan empirik natijalarga tayangan holda quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, korxonalar dividend siyosatini shakllantirish jarayonida foyda sifati ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilib borishlari hamda foydani boshqarish amaliyotlarini cheklovchi ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirishlari maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, aksiyadorlar va investorlar investitsion qarorlar qabul qilish jarayonida dividend darajasi bilan bir qatorda foydaning sifati va barqarorligini ham chuqur tahlil qilishlari zarur. Uchinchidan, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish orqali dividend siyosatining axborot mazmunini kuchaytirish kompaniya qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, moliya bozorini tartibga soluvchi organlar uchun ham muhim xulosalar chiqarish mumkin. Xususan, moliyaviy hisobot standartlariga rioya etilishini kuchaytirish, foydani boshqarish holatlarini cheklovchi me'yoriy talablarni takomillashtirish hamda audit institutlarining rolini kuchaytirish dividend siyosati samaradorligini oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari rivojlanayotgan bozorlar sharoitida dividend siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lintner J. Distribution of Incomes of Corporations Among Dividends, Retained Earnings, and Taxes // The American Economic Review. – 1956. – Vol. 46, № 2. – P. 97–113.
2. Miller M.H., Modigliani F. Dividend Policy, Growth, and the Valuation of Shares // The Journal of Business. – 1961. – Vol. 34, № 4. – P. 411–433. – DOI: <https://doi.org/10.1086/294442>
3. Baker H.K., Smith D.M. Dividend Policy: Theory and Evidence. – Hoboken (NJ): John Wiley & Sons, 2006. – 450 p.
4. Jensen M.C. Agency Costs of Free Cash Flow, Corporate Finance, and Takeovers // The American Economic Review. – 1986. – Vol. 76, № 2. – P. 323–329.
5. Ross S.A. The Determination of Financial Structure: The Incentive-Signalling Approach // The Bell Journal of Economics. – 1977. – Vol. 8, № 1. – P. 23–40.
6. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3, № 4. – P. 305–360. – DOI: [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(76\)90026-X](https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X)
7. Bhattacharya S. Imperfect Information, Dividend Policy, and "The Bird in the Hand" Fallacy // The Bell Journal of Economics. – 1979. – Vol. 10, № 1. – P. 259–270. – DOI: <https://doi.org/10.2307/3003330>
8. John K., Williams J. Dividends, Dilution, and Taxes: A Signalling Equilibrium // The Journal of Finance. – 1985. – Vol. 40, № 4. – P. 1053–1070. – DOI: <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1985.tb02363.x>
9. DeAngelo H., DeAngelo L., Stulz R.M. Dividend Policy and the Earned/Contributed Capital Mix: A Test of the Life-Cycle Theory // Journal of Financial Economics. – 2006. – Vol. 81, № 2. – P. 227–254. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jfineco.2005.07.005>
10. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R.W. Agency Problems and Dividend Policies around the World // The Journal of Finance. – 2000. – Vol. 55, № 1. – P. 1–33. – DOI: <https://doi.org/10.1111/0022-1082.00199>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100